



“RAQSNING JOZIBADORLIGI VA UYG‘UNLIGI”

Erjanova Diana

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
san’atshunoslik yo‘nalishi 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14616079>

“Har qaysi millatning o‘ziga xos qiyofasini belgilaydigan, uning betakror xususiyatlarini yorqin ifoda etadigan madaniyat va san’atda xalqning tarixi va o‘lmas ruhi namoyon bo‘ladi”.

San’at turlaridan biri bo‘lmish raqs san’ati nafosati, jozibasi va o‘zgacha sehri bilan kishi dilini o‘ziga tortadi. Zero, raqs qalbdagi sirli tuyg‘ularni go‘zal harakatlar orqali namoyon etadigan san’atdir. Raqqosani har bir harakati bir ma’noni anglatadi, uni e’tibor bilan kuzatsangiz bastakor musiqa orqali tinglovchiga nimani yetkazmoqchi bo‘lgan bo‘lsa, raqqosa o‘z harakatlari bilan tomoshabinga o‘sha ma’noni ifoda etib beradi. Raqsdagi qo‘l va oyoq harakatlarini nomlariga e’tibor qaratganimizni o‘zidayoq uning oddiygina hayotdan olinganligiga guvoh bo‘lamiz. Misol uchun “Hayol” harakati orqali raqqosa yuz ifodasi va harakatlari orqali hayol surayotganini ko‘rsatadi. “Mayin sabo”, “Yirik to‘lqin”, “Suv sepish”, “Gul g‘uncha”, “Qo‘li band”, “Labi shakar”, “Ilon izi”, “Soch silash”, “Uyalish”, “Novda egilishi”, “Uzum uzish”, “G‘oz yurish”, “Ufori”, “Yarim qaychi” kabi qo‘l va oyoq harakatlari shular jumlasidandir.

Raqs, san’atning boshqa turlari kabi, inson hayotini va butun olamni o‘rganishning badiiy usuli hisoblanadi. Uzoq tarixga borib taqaladigan o‘zbek raqs san’atimizning bizgacha yetib kelishi va rivojlanishida qanchadan-qancha buyuk raqs ustalarining hizmati kattadir. Mukarrama Turg’unboyeva boshchiligida tashkil topgan jozibali va tarixiy “Bahor” ansamblining o‘zi o‘zbek raqs san’ati uchun bir katta maktab desak yanglishmaymiz.

O‘zbek raqs san’ati qadimdan badiiy ijod sifatida insonning yashash tarzi taqdiri xaqida badiiy timsollar, badiiy obrazlar orqali xalqqa namoyish etib kelingan.

Raqqosa ijro davomida obraziga chuqurroq kirib, uni to‘laqlonligicha ochib berishi ustida uzoq va tinimsiz ish olib bormog‘i talab etiladi. Zero, raqqosa biron-bir obraz orqali o‘z raqsida nimani targ‘ib etib, tomoshabinga yetkazmoqchi bo‘layotganini qalban his etgan xolda ijro mahorati ila ifoda etmasa, uning raqsi faqatgina go‘zal raqs harakatlarning yig‘indisiga aylanib qolishi mumkin.

O‘z davrida o‘zbek raqs malikasi Mukarrama Turg’unboyeva haqida Galina Zagurskayaning quyidagi fikrlariga guvoh bo‘lamiz- “Men o‘zbek raqqosalarining





odatdan tashqari plastikligiga hamisha taxsin aytib kelardim. Ammo ulardan biri – Mukarrama Turg'unboyeva ulug' bir salohiyatga ega: uning raqs plastikasi quvona, kula, iztirob cheka biladi..."

Haqiqatdan ham raqqosa avvalo o'sha raqsning mohiyatiga kirib borishi kerak. O'z qahramoni holatiga tusha olishi, u his qilayotgan tuyg'ularni qo'l va oyoq harakatlari, nigohlari va yuz ifodalari vositasida harakatga uzatishi lozim. Har bir raqsning o'z hususiyati, ruhi bor. Raqqosa qanday kayfiyatda bo'lishidan qat'iy nazar, ijro etishi kerak bo'lgan raqsning musiqasi ta'sirida ritmga tushib olishi kerak.

Shunday-ku lekin, hozirgi kunda bu holatni kuzatish borgan sari mushkul bo'lib qolmoqda, asosan o'zbek raqqosalarimizdan xonandalarimizni ortida sahnani to'ldirib turish uchun fon vazifasida foydalanilayotganday go'yo. Ansambllarimizni asosiy ishi ham shu bilan yakunlanib qolayotganday va ko'p vaqtlari xilma-xil xonandalarimizni konsert dasturlarida bir-biriga o'xshash bir marotabalik raqslar yaratish bilan o'tib ketayotgandek. Bu esa o'zbek raqs san'atimizni tobora susayib bir qolipga tushub qolishiga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, hozirgi zamondagi raqs ansambllari o'zlarining konsert dasturlari ustida izlanishga ko'proq e'tibor qaratmoqliklari lozim. Zero, tomoshabin bunga muhtoj. Vaholanki hozirgi davrda tomoshabinlarni ayniqsa yoshlarni o'zbek milliy raqsimizga qiziqishini yanada kuchaytirmog'imiz lozim. Chunki, kundankunga ko'pgina yoshlar va xattoki katta yoshdagilarning nazarida quruq raqsni nimasini tomosha qiladi degan salbiy fikr o'rnashib bormoqda. Zero, o'z davrida "Bahor", "Shodlik", "Lazgi" kabi ko'plab raqs ansambllarining konsert dasturlarini katta qiziqish bilan kuzatib borilgani sir emas.

Bu bilan hozirgi vaqtda raqs ansambllar o'z ustilarida izlanishlarini butunlay to'xtatib qo'yganlar demoqchi emasmiz. "O'zbekiston", "Ofarin", "Sabo" ansambllari va bir qancha yakkaxon raqqosalar Sug'diyona Isroilova, Iroda Ismoilova, Zarina Ahmedova (Fatoyeva), Muhabbat Qurbonovalar muntazam izlanib borgan tarzda ijod mevalarini tomoshabinlarga konsert dasturlari orqali namoyish etib kelmoqdalar. Bu esa san'at ixlosmandlarini yanada quvontirishi bilan bir qatorda tomoshabinlarda ham milliy raqsimizga bo'lgan fikrlarini ijobiy tomonga o'zgartirgan xolda e'tiborlarini qaratishga zamin yaratmoqda. Xattoki, iqtidorli yosh raqqosa "Nihol" mukofoti sovrindori Iroda Ismoilovanning yakkaxon konsert dasturida Alisher Navoiy nomli opera va balet Akademik Katta teatri zali anshlag xolatiga kelganini guvohimiz.

Konsert dasturlari yordamida ansamblning ijod faoliyati yanada yuksaladi, chunki, birinchi o'ringa xonandalar emas balki raqsning o'zi chiqadi. Tabiiyki bu





ansambldan katta ma'suliyat talab etadi, shu yordamda baletmeyster va ijrochi yaratilayotgan har bir asar ustida puxta bosh qotiradi. Ansambl so'zining o'ziga e'tibor qaratganimizdanoq uning zamiriga birgalikda, bir vaqtning o'zida degan ma'nolar yashiringanini ko'ramiz. Raqsda ansambl tushunchasi raqs dastalarida hamda ommaviy raqslarda keng foydalaniladi. Raqs dastasi yaratgan asarlarning yanada jozibali ko'rinishga ega bo'lishini muhim sabablaridan biri bu albatta ansambldir. Ya'ni har bir raqqos va raqqosa ijro davomida harakatlarning bir vaqtda, tekis, sinxron xolatda bajarilayotganiga e'tibor qaratmog'i lozim.


Raqs asarining yanada jozibali chiqishida raqqosaning ijro mahoratining ham o'rni katta. Ijro mahoratini shakllanishi uchun avvalam bor har bir raqqosa o'zini ichida yashayotgan menini tashqariga chiqara bilmog'i lozim, bunda albatta ustozlarni vazifasi katta. Ular asosan shu raqqosa qaysi uslubda, qaysi yo'nalishda yanayam ochilib, uning harakatlari boshqa raqqosalardan ko'ra ko'proq jozibaliroq chiqayotganini ko'ra bilishi kerak. Bu esa ustoz va shogirdan katta mehnat va vaqt talab etadi.

Baletmeyster raqs sahnalashtirishdan avval uning syujeti haqida mukammal o'ylashi va raqqosaga buni yetkaza bilishi zarur. Qachonki raqqosa o'z obrazini to'la to'kis tushunib yetib ijro etsagina bu raqsning qimmatini oshirib, uni barhayot bo'lishiga zamin yaratadi. Ya'ni raqsni ansambl tarzda ijro etish bilan uning surati yaratilsa, raqsni qalban his etib, ijro mahorati orqali yetkazishda uni siyrati mujassam bo'ladi. Surat ila siyratni uyg'unlashtirishga erishish esa raqsni jozibadorligini yanada oshiradi.

Buni isbotini biz o'zbek raqs san'atida ijod etgan "Bahor", "Shodlik", "Lazgi", "Zarafshon", "Tanovar" kabi ko'plab professional raqs ansambllari misolida ko'ramiz. Ushbu ansambllarning "Tanovar", "Munajat", "Pilla", "Gulsara", "Qo'g'irchoq", "Nozanin", "Paxta", "Bayot", "Rohat", "Lazgi", "CHO'girma o'yini", "Axau-maxau polvon", "Xiva go'zali", "Ushlini uforisi", "Zarafshon qizi", "Lagan", "Andijoncha", "Farg'onacha yoshlar raqsi", "Dilxiroj", "Guldasta", "Pomircha raqs", "Farg'ona ruboiysi" kabi bir-biridan go'zal raqslari o'zbek raqs san'ati merosidan o'rin egalladi.

Istagimiz hozirgi zamon raqs ansambllaridan ham kelgusida o'zbek raqs san'ati merosidan o'rin egallaydigan jozibali, zavqu-shavqqa to'la, rang-barang shu o'rinda insonning barcha qalb kechinmalarini yetkaza bera oladigan raqs asarlari vujudga kelsin.

O'zbek milliy raqsimiz tarixiga va rivojlanish davriga yuzlanganda Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Galiya Izmaylova, Qunduz Mirkarimova, Qizlarxon Do'stmuhammedova, Ma'mura Ergasheva,





Malika Ahmedova, Rushana Sultonova singari ajoyib namoyandalar bilan bir qatorda ularning davomchilari bo'lmish iste'dodli yoshlarimizni ham nomlari qo'shilgan xolda tilga olinsin. Buning uchun ulardan mashaqqatli mehnat, tinimsiz izlangan xolda ijod etish talab etiladi. Shu o'rinda o'zbek raqsimiz davomchilariga doimo izlanishni, intilishni, sahnalarda to'vusdek hirom aylab, kaptardek charx urib, o'zligini raqsdan namoyon etish bilan dillarga olam-olam zavq ulashishlarini va albatta o'zbek raqslarini kelajak avlodga o'zligini yo'qotmagan holatda yetib borishida ozmi-ko'pmi o'z hissalarini qo'shishlarini tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Avesto" kitobining 2700 yilligiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuining ochilish marosimidagi nutqi", "Xalq so'zi", 2001 yil 6 noyabr № 226 (2788) 2 bet.
2. Avdeyeva L. - "O'zbek milliy raqsi tarixidan", - T., 2001.
3. Avdeyeva L. - "Mukarrama Tug'unboyevaning raqsi", - T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989.
4. Avdeyeva L., Qodirov M., Ismatova Y. "Tanavor" raqsi jilolari" T., G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2002.

